



**OLIV VA O'RTA MAXSUS TALIM VAZIRLIGI
QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**ZAMONAVIY FAN VA TA'LIM-TARBIYA:
MUAMMO VA YECHIMLAR**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**

2022-yil

bera boshlaydi, soʻzlarga nisbatan koʻz bilan chamalash paydo boʻladi. Bola hayotining birinchi yili oxiriga kelib 10—20 ta soʻzni tushunadigan boʻladi. Xuddi shu vaqtda bola aytadigan dastlabki soʻzlar paydo boʻladi. Shuni taʼkidlab oʻtish kerakki, bola bir yoshga toʻlganida unda kattalar bilan aloqa qilishga ijtimoiy ehtiyoj tugʻiladi – bu ehtiyoj bolaning yangi hayot bosqichiga oʻtishi uchun juda muhim ahamiyatga egadir. Chunki, shu jarayonda jismoniy va axloqiy tarbiya uygʻunligiga asoslangan mafkuraviy ong goʻdak bolaga oʻzining taʼsini oʻtkazishni boshlab yuboradi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Mirziyoev Sh.M Erkin va obod,demokratik jamiyatni barchamiz birgalikda barpo etamiz.Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga koʻtaramiz. (2017).1-jild. – T.:« Oʻzbekiston» NMIU–B.147.
- 2.Mirziyoev Sh.M. Oltin vodiy durdonasi// Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. (2017) – T.: «Oʻzbekiston» NMIU.–B.44.
- 3.Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taʼminlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi// Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga koʻtaramiz. (2017)1-jild. – T.:«Oʻzbekiston» NMIU. – B.110.
4. J.Ya.Yaxshilikov, N.E.Muhammadiev Milliy gʻoya-taraqqiyot strategiyasi (2018) -T.:Fan. -B. 82.
5. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiev N.E. Milliy gʻoya va mafkura. (2015) - T.:Fan. -B. 78.
- 6.Milliy gʻoya targʻibot texnologiyalari va atamalar lugʻati. (2009) - T.:Muharrir. -B. 10.

Нотариал идораларнинг жамият ижтимоий ҳаёти ва фуқаролик муносабатларни тартибга солишда тутган ўрни

И.Т.Мамажонова -

Чирчик ДПУ, докторант

Аннотация ушбу мақолада нотариал идораларнинг жамият ижтимоий ҳаёти ва фуқаролик ҳуқуқий муносабатларни тартибга солишда тутган ўрни ёритилган. Аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтож эҳтиёжманд қатламлари ҳимоясини кафолатлаш бугунги кунда мамлакатимиз олдида турган устивор вазифалардан бири сифатида белгиланганлиги, хусусан, ушбу масала 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устивор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили”да амалга оширишга оид Давлат дастурида тўла ўз аксини топганлиги қайд этилган.

Калит сўзлар: ижтимоий ҳимоя, фуқаролик ҳуқуқий муносабат, нотариус, вояга етмаган шахс, нотариал идора, давлат божи, техник хизмат, нотариал ҳаракат, ҳуқуқий оқибат.